



Sulaymonova Madina Qurbonovna

Buxoro davlat universiteti "Tarix va yuridik" fakulteti 5-2 YURS 25 guruh 1-kurs talabasi E-mail:
sulaymonovamadina084@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashdagi roli hamda farovon turmush uchun yaratadigan huquqiy kafolatlari haqida so'z yuritiladi. Konstitutsiyaning davlat barqarorligi, fuqarolar manfaatlarini himoyalash, huquqiy davlat qurilishidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, huquqiy davlat, erkinlik, farovonlik, inson huquqlari, demokratiya, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi.

KIRISH

Har qanday davlatning mustahkamligi, taraqqiyoti va dunyo maydonidagi mavqei, avvalo, uning Konstitutsiyasiga tayanadi. Konstitutsiya – bu davlatning bosh qomusi, xalqning irodasi va davlat boshqaruvi o'zida aks ettirgan. Shuningdek, davlatning boshqaruvi, siyosiy tuzilishi, hududiy yaxlitligi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini tartibga soladigan asosiy qonun. Shu bois ham Konstitutsiya har bir millatning eng muqaddas qadriyati, jamiyatning erkin va farovon hayotini ta'minlovchi bosh mezon sifatida e'zozlanadi. O'zbekiston Respublikasining ilk Konstitutsiyasi Oliy Kengashning XII chaqiriq, XI sessiyasida 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra xalq davlat hokimiyatining yagona manbai ekanligi aytib o'tilgan. Konstitutsiyada oliy qadriyat inson huquqlari sifatida e'tirof etilgan bo'lib, jamiyatning har bir bo'g'ini u asosida faoliyat yuritadi. Konstitutsiya asosida mustaqil O'zbekiston rivojlanish yo'liga yetaklandi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, madaniy-marifiy hayot tubdan o'zgardi.

Bu xususida so'z yuritar ekanmiz, davlatimiz rahbarining quyidagi so'zlarini eslab o'tishimiz lozim: "Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi. Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e'tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi"¹¹.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda sifatli ilmiy tahlilni ta'minlash maqsadida bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, normativ-huquqiy tahlil metodi qo'llanib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmuni, unda belgilangan inson huquqlari, davlat boshqaruvi tamoyillari va demokratik institutlar faoliyatiga doir normalar o'rganildi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 1992-yildagi ilk tahriri hamda 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrir o'rtasidagi o'zgarishlar qiyosiy tahlil orqali yoritildi. Shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy metod asosida konstitutsiyaviy normalarning jamiyat

¹¹ Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 8-dekabr, №254 (7484).



farovonligi, huquq va erkinliklar kafolatlari, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi roli o'rganildi.

Bundan tashqari, mantiqiy umumlashtirish va sistemalashtirish metodlari qo'llanib, Konstitutsiyada belgilangan tamoyillar va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri izchil bayon qilindi. Davlat rahbarining Konstitutsiya haqidagi fikrlari esa mavzuning dolzarbligini ochib beruvchi qo'shimcha manba sifatida tahlil qilindi. Ushbu metodlarning uyg'un qo'llanilishi Konstitutsiyaning bugungi demokratik islohotlardagi o'rnini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Bugungi kunda xalq farovonligi, tenglik, milliy manfaatlar va erkin fikrlashga asoslangan jamiyat shakllanib bormoqda. Bularning barchasi bevosita Konstitutsiya yaratgan huquqiy poydevor natijasidir. Konstitutsiyaning eng asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning, aholining huquq va erkinliklarini ta'minlashdir. Unda yashash huquqi, mulkdor bo'lish, so'z va fikr erkinligi, e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, ta'lim va mehnat qilish huquqlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, sud orqali himoyalash huquqi, tenglik tamoyili, shaxs daxlsizligi ham kafolatlangan. Bu huquqiy asos fuqarolarning keng imkoniyatlarga ega bo'lishi, jamiyatda barchaning teng huquqli ekanligi, o'z hayotini erkin qurishi, jamiyatga o'z hissasini qo'shishi uchun muhim zamin yaratadi¹². Inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati – davlatning eng oliy mas'uliyatidir. Agarda davlat fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilmasa, jamiyatda adolat va barqarorlik va qonun ustuvorligi bo'lmaydi. Shu ma'noda Konstitutsiya – xalqning huquqiy qalqoni, jamiyat erkinligining mustahkam kafolatidir. Demokratik jamiyatning asosiy mezonlari – qonun ustuvorligi va huquq ustuvorligining ta'minlanishidir. Konstitutsiyasiz qonunlar tizimi to'laqonli bo'la olmaydi. Bosh qomusimizda davlat hokimiyati uch tizimga ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi belgilangan. Bu tizim hokimiyatni to'g'ri taqsimlashga, adolat va muvozanatni ta'minlashga, jamiyatda qonunlarning to'g'ri tadbiq qilishga xizmat qiladi. Hokimiyat tarmoqlari o'z vazifalarini o'z vaqtida, intizomli ravishda bajarishi natijasida jamiyatda tartib, qonuniylilik va adolat qaror topadi¹³.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan umumxalq referendumini natijasida qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi. Ushbu hujjat 155 moddadan iborat bo'lib, avvalgi tahrirdan ancha farq qiladi. Konstitutsiyaning asosiy g'oyasi – "Inson qadri uchun", ya'ni demokratik davlatda fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ustuvorligi kafolatlanadi. Bugungi kunda, O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida belgilandi, shaxsiy hayot daxlsizligi, ma'lumotlarning maxfiylik, monopol faoliyatning cheklanishi, so'z, fikr, vijdon, e'tiqod erkinligi, davlat tomonidan advokat xizmatidan foydalanish, adolatli sudlov va huquqiy himoya aniq konstitutsiyaviy kafolatga ega bo'ldi¹⁴. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat boshqaruvini demokratiklashtirishga ham qaratilgan. Oliy Majlis, hokim va mahalliy kengashlarning vakolatlari kengaytirilib, hokimiyat bo'linishida

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.

¹³ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5378966>

¹⁴ Shonazarovna M. V. Konstitutsiya baxtimiz qomusi // Евразийский журнал академических исследований. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 79-81.



muvozanatli tizim yaratildi. Shu bilan birga, yoshlar ta'limi, bandligi va aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlari, nogiron va kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq normalar kiritildi. Jamiyat va davlat taraqqiyoti fuqarolarning farovon hayoti bilan o'lchanadi. Farovonlik esa nafaqat moddiy ne'mat, balki ijtimoiy tenglik, ta'lim olish imkoniyati, sog'liqni saqlash xizmatlari, bandlik, xavfsizlik va tinchlik bilan bog'liq. Konstitutsiya aynan ana shu sohalarda huquqiy zamin yaratadi. Unda kishilarning ijtimoiy himoyasi, pensiya tizimi, ayollar va yoshlar manfaatlari uchun qo'shimcha yordamlar belgilab o'tilgan. Bugungi yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilinishi, oliy ta'lim imkoniyatlarining kengayishi, iqtidorli yoshlar uchun stipendiya va grantlar ajratilishi, farovon kelajak sari tashlangan eng katta qadamdir. Bularning barchasi Konstitutsiyada belgilangan huquqlar asosida amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya – erkin va farovon hayotning eng asosiy kafolati, davlat mustaqilligi va xalq irodasining huquqiy asosidir. Unda fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy faoliyatlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Konstitutsiya davlat barqarorligining poydevori, taraqqiyot va adolatning bosh manbai, mustaqil O'zbekiston kelajagini belgilovchi strategik hujjatdir. Uni asrash, o'rganish, unga amal qilish har bir fuqaroning sharafligi va burchidir. Zero, Konstitutsiya – bugungi farovonligimiz va ertangi porloq kelajagimiz kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 8-dekabr, №254 (7484).
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
3. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5378966>
4. Shonazarovna M. V. Konstitutsiya baxtimiz qomusi //Евразийский журнал академических исследований. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 79-81.